

**KIBERJINOYATCHILIK – GLOBAL XAVF**

**RAHMONOV SHAMSHODBEK SHERZOD O'G'LI**  
*TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI XUSUSIY*  
*HUQUQ FAKULTETI 1-BOSQICH TALABASI*

**ANNOTATSIYA:** Bu maqola dunyoga xavf solishi orqali insoniyatning o'ziga tegishli bo'lgan va bundan tashqari davlatlarning sirlil ma'lumotlarini oshkor qilinishi va global xavf tug'ulishi sabab bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat mavzusida so'z boradi. Shuni aytib o'tish mumkinki kiberjinoyat nafaqat insoniyat uchun, balki ular yashab turgan mamlakat uchun ham juda kata xavf tug'dirishiga va qonunchilikning bunga qandey munosabatda bo'lishini aniqlashga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, daxsizlik, sha'n, qadir-qimmat, ijtimoiy tarmoq, raqamli davr.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматривается тема преступления, которое принадлежит самому человечеству, подвергая опасности мир, и которое может повлечь за собой раскрытие секретной информации государств и создание глобальной угрозы. Можно отметить, что киберпреступность представляет большую опасность не только для человечества, но и для страны, в которой оно живет, и именно ей посвящено определение того, как на нее должен реагировать закон.

**Ключевые слова:** Конституция Республики Узбекистан, неприкосновенность, честь, достоинство, социальная сеть, цифровой век.

**ABSTRACT:** This article deals with the topic of the crime, which belongs to humanity itself by endangering the world, and which can cause the disclosure of the secret information of the states and the creation of a global threat. It can be mentioned that cybercrime poses a great danger not only to humanity, but also to the country in which they live, and it is dedicated to determining how the law should react to it.

**Key words:** Constitution of the Republic of Uzbekistan, inviolability, honor, dignity, social network, digital age.

**KIRISH.** Insoniyat hayoti davomida turli xil jinoyatga duch keladi va ularning yangi rivojlangan jinoyatlardan biri bu kiberjinoyatdir. Kiberjinoyat bu raqamli dunyoning yangi paydo bo'lgan jinoyati bo'lib o'zining shu boshqa jinoyatlari bilan boshqalaridan ajralib turadi. Uning hozirgi darajasi juda yuqori va uni hamma sohada uchratishimiz mumkin.

Jinoyatlarga yarasha qonunchilik ham rivojlanib o'zining jinoyatga qarshi qo'llashi kerak bo'lgan qonun normalariga o'zgartirish kiritilmoqda. Kiberjinoyat-insoning shaxsiga daxl qilishi uchun yangi yo'lning biri bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyaning 31-moddasiga muvofiq har kim yozishmalari, telefon orqali sozlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Ya'ni insoning shaxsiy bank hisobidagi mavjud mablag'ning ma'lum haker yoki jinoiy guruh o'g'irlashi va u qonunga hilof yo'l bilan emas balki hech kimning roziligisiz uning hisob mablag'ini olishi va yoki ko'zdan kechirilishi qonunga muvofiq man etilgan. Biroq shaxsning ma'lum sabablarga ko'ra ma'lum harakatlari shubha tug'dirgan taqdirda faqatgina bitta organ tomonidan ko'zdan kechirilishi va qonunga muvofiq holda uning huquqlarini cheklashi mumkin. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Ushbu normalar orqali yana bir narsani tushunishimiz mumkinki hozirgi davrda butun dunyo bo'ylab raqamli iqtisodiyot, ta'lim va insoning shaxsiy mablag'i ham raqamlashtirish orqali hayot og'irliklarning kattagina qismiga hissa qo'shildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq buning salbiy tomonlarini ham bor albatta bulardani bank karatdan aldov yo'li bilan pulni fuqarolarning ishonchidan foydalanib o'g'irlash holati keskin oshdi.

Misol qilib 2022-yildagi statistikaga yuzlanadigan bo'lsak Toshkent shahrining o'zida kiberjinoyatlardan fuqarolar 45,2 mlrd so'm zara ko'rilgani aniqlangan. Bunga qarshi 2023-yilda qonunchilik tizimi juda katta zaralarni qayta ko'rishini oldini olish va fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari va ularga tegishli bo'lgan barcha shaxsiy buyumlari, bank hisobidagi mablag'larni yo'qotishlarini oldini olish va chek qo'yish uchun yangi normalar kiritildi. Bunda Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Kiberjinoyat o'sib borayotgan global muammodir. Kichik biznesmisiz, Fortune 500 kompaniyasi bo'lasizmi, birinchi smartfoningizni sotib olsangiz yoki kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassis bo'lasizmi, siz kiberjinoyatlardan xabardor bo'lishingiz kerak. Internet ta'lim va iqtisodiy imkoniyatlarni dunyo hech qachon ko'rmagan narsalarni beradi. Shu bilan birga, xuddi shu vosita zarar etkazish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ham beradi. Texnologiyani suiiste'mol qilish orqali kiberjinoyatchilar biznesni va hatto

hayotni buzadi. Dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlar va tashkilotlar kiberjinoyatchilarni to'xtatish va tizimlarni yanada xavfsizroq qilishga yordam berish uchun kurashmoqda. Biroq, oldini olishning eng yaxshi usullaridan biri bu ta'limdir. UNODC butun dunyo bo'ylab akademiklar ko'magida kiberjinoyatchilik bo'yicha bir qator modullarni ishlab chiqdi. Ushbu universitet modullari ushbu murakkab va qiziqarli sohaning ko'p jihatlarini qamrab oladi va nazariy tushunchalar bilan bir qatorda amaliy bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu modullar ko'p tarmoqli xususiyatga ega, chunki ular turli mavzularga qaratilgan va kiberjinoyat va kiberjinoyatlarni tekshirishning turli jihatlarini bo'yicha resurslarni taqdim etadi. Fikrimiz oxirida shuni aytish mumkinki har jinoyat sohasida davlatimiz turli cheklov va imkoniyatlarni kiritish mumkin bo'lgan qarorlar va qonunlarga qo'shimcha kiritishi bu davlatning inson sha'ni qadri-qimmatini ulug' ekanligi va qonun bilan kafolatlanishini shuningdek global xavfni bartaraf etish uchun qonunlar qabul qilinyotgani bizni juda quvontiradi. bundan tashqari yangi qonunchilikdan biri bo'lgan "kiberxavfsizlik to'g'risidagi" qonuni orqali bu jinoyatga yetarli darajada cheklov qo'yiladi.

### **XULOSA**

Umuman olganda kiberjinoyat turli xil davrda o'zining tas'irini ko'rsatadi va bularni bartaraf etish uchun davlatimizning bundan tashqari xalqning o'zi ham har bir narsaga ko'z yumish emas, aksincha buni to'xtatish uchun harakat qilishi bu insoniyatni quvontiradi. Yana bir misol bu inson o'z shaxsiga doir ma'lumotlarni saqlay olishi o'zining zararli tasirlardan saqlanishiga olib keladi albatta bu qonunchilik bilan kafolatlangani yanada yaxshi imkoniyatlar eshigini ochadi. Albatta davlat fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni kafolatlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-"O'zbekiston"-2021
2. <https://www.kaspersky.com/resource-center/threats/what-is-cybercrime>
3. <https://sherloc.unodc.org/cld/en/education/tertiary/cybercrime.html>
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son
5. <https://cybersecurityventures.com/>